

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

Biologiya va inson hayotiy bo'limi yo'nalishi

2 kurs A guruh talabasi HAMROYEVA

MAFTUNANING

Kurs ishi

Mavzu: O'simliklarning taqsimlanishi

RAHBAR: Ravshanova M

Navoiy 2013yil

REJA:

I.Kirish

II.Asosiy qism

1 Cho`l mintaqasi o`simliklari

2 Adir mintaqasi o`simliklari

3 Tog` mintaqasi o`simliklari

4 Yaylov mintaqasi o`simliklari

5 To`qay mintaqasi o`simliklari

III. Qizil kitob va uning ahamiyati,

O`zbekistondagi foydali va zararli o`simliklar

IV. XULOSA

Kirish

Yer sharida uchraydigan barcha o'simlik turlari hech vaqt yakka(boshqa tirik organizmlardan ajralgan) holda hayot kechira olmaydi.Muayyan bir yerning o'zida bir necha o'simlik turlari birgalikda o'sayotganini ko'rish mumkin.Bu o'simliklar tuban va yuksak o'simlik vakillaridan tashkil topgan bo'ladi. Haqiqatdan ham barcha gulli o'simliklar bilan birga tuproqda ba'zi suv o'tlari bakteriyalarni va zamburug'larni uchratish mumkin. O'simlik jamoasi (guruhi) deganda,muayyan bir yerda bir guruh o'simliklarning birgalikda yashashi va ma'lum manzara hosil qilishi tushiniladi.yer yuzida bunday guruhlar turli hil o'simliklar (o'rmon,o'tloqzor,botqoqlik,dasht,cho'l o'simliklari va hakoza)tipini tashkil qiladi.O'simliklarning yer yuzida tarqalishi, tarqalish qonuniyatlarini o'simliklar geografiyasi o'rganadi. O'simliklarning tarqalishi haqida gap borganda, har bir geografik zonaning o'ziga xos tabiiy sharoitlari, ayniqsa tashqi muhit sharoitlarini bilish zarur.Bu vazifa bilan esa botanikaning yana bir tarmog'i-o'simliklar ekologiyasi shug'ullanadi. Har bir konkret yerning, iqlim ,tuproq, relief va boshqa sharoitlarni o'rganish asosida shu yerda o'sadigan o'simliklar hayotini aniq tsavur etish mumkin bo'ladi.O'simliklarning umumiy tashqi muhit qolaversa, konkret tuproq sharoitiga bolgan munosabatini botanikaning boshqa tarmog'i - geobotanika o'rganadi. O'simliklar geografiyasi umuman botanika fanining rivojlanishida Osiyo shu jumladan, O'zbekiston territoriyasida olib borilgan botanik geografik tekshirishlarda hissa qo'shgan olimlarning soni juda ham ko'p. Masalan, S.I.Korjinskiy, A.I.Kraspov , V.L.Komarov , M.G. Popov, I.M.Krashnikov ,N.V.Pavlov, I.T.Vasilchenko, N.T.Nichaeva, I.I. Grapitov, P.Zokirov va boshqalqr.Yuqorida nomlari qayt etilgan olimlarning kuzatishlari asosida O'rta Osiyo va O'zbrkiston o'simliklarining tarqalishi va joylashishiga doir klassifikatsiyalar tuzilgan. Maskur klassifikatsiyalar (yoki sistemalar) asosida o'simliklarning mintaqalar bo'yicha taqsimlanish prinsipi yotadi. Ayniqsa P.Zokirov sistemasi o'zining qulayligi, aniqligi va oddiyligi, bilan boshqalaridan farq qiladi. Qoraqarag'ay o'rmonlari Tyanshanning Jung'oriya , Zaili , Chotqol, Talas tog'larida uchraydi va bir necha formatsiyalarni tashkil qiladi Qoraqaragay pixta o'rmonlari asosan, Chotqol va Farg'ona tog'larida uchraydi. O'simliklar geografiyasi o'z ichiga quyidagi mustakil bo'limlarini oladi.

1. Floristik geografiya. Bu bo'lim avlod, oila va shu kabi sistematik birliklarning xamda o'simlik guruxlarining (o'rmon, dasht, cho'l, tog) er yuzidagi tarkalish konuniyatlarini o'rgatadi.

2. O'simliklarning ekologik geografiyasi - o'simliklarning tashki muxit bilan o'zaro munosabatini o'rganadi.

3. Tarixiy geografiya - iklim xamda er kobigining o'zgarishi natijasida er yuzida sodir bo'lib, turadigan o'simliklarning tarkalish konuniyatlarini o'rgatadi.

4. Geobotanika yoki fitotsenologiya - O'simlik jamoalarining yashash joyi sharoiti va xududlarga boglik xolda tuzilishini va ularning taksimlanishini o'rgatadi.

Ma'lum bir xududda o'suvchi o'simlik turlarining yigindisiga flora deyiladi. Masalan: O'zbekiston floras, Kozogiston floras va xokazo. Bir mamlakat floras boshka mamlakat florasidan xamma vakt fark kiladi. Chunki ularning iklimi va tuprok sharoiti xamda o'simlik turlarining kelib chikishi turlichadir.

O'simlik turlarining er shari bo'ylab tarkalishi ma'lum konuniyat asosida bo'lib, ular kuyidagilardan iboratdir.

1. Shimoldan Janubga borgan sari o'simlik turlari ortaveradi. Chunki iklim o'zgarib, o'simliklarning yashashi uchun sharoit yaxshilanib boradi.

2. O'simlik turlari togli tumanlarga nisbatan tekislikda kamrok bo'ladi. Sababi toglarda iklim va tuprok sharoiti xilma xildir.

3. Geologik jixatdan oldin xosil bo'lgan toglar va tekisliklarda o'simliklar soni, nisbatan yangi bo'lgan xududlarga karaganda ko'prok bo'ladi.

4. Tropik va subtropik mamlakatlarda iklim sharoiti o'ta kulayligi tufayli ularda o'simlik turlarining soni ko'p bo'ladi. Masalan: MDX da yuksak o'simliklarning 16 mingga yakin turi uchragan bo'lsa, Braziliyada 40 ming. O'rta Osiyoning togli tumanlarida yukori o'simliklarning 5 mingga yakin turi o'sadi. Cho'l zonasida xammasi bo'lib, 800 ga yakin o'simliklar turi uchraydi.

3. O'simlik turlarining kelib chikishi, tabiatda tutgan o'rni, xalk xo'jaligida foydalanishiga ko'ra barcha yuksak o'simliklar kuyidagi guruxlarga bo'linadi. 1. Madaniy o'simliklar. Bular insonlar tomonidan ekib, o'stiriladigan o'simliklar bo'lib, odamlar ularning xosilli sifatli tur va navlarini yaratganlar. Masalan: go'za, bugdoy. G. N. Shlikov ma'lumoticha xozir ekiladigan o'simlik turlarining soni 30000 ta bo'lib, insonlarning doimiy foydalaniladigan turlari 11 mingni tashkil kiladi.

O'zbekistonning o'simliklari, xususan dendrofloras turli mamlakatlardan keltirilgan yangi daraxt va buta o'simliklar xisobiga boyimokda. Masalan: Virgenya xurmosi, pushti gulli akatsiya, katalpa, Amerika zarangi, tuxmak, shark xurmosi, beresklet, sovun daraxti, lola daraxti, magnoliya va shu kabilar.

2. Yovvoyi o'simliklar evolyutsion jarayonlar natijasida yashashga moslashgan tabiiy sharoitda o'sadiagn o'simliklardir. Masalan: O'rta Osiyo cho'l zonasidagi shovoklar, korabosh, yantok, lolakizgaldok, saksovullar. Tog zonasidagi yovvoyi olma, yongok, archa, do'lane, bodom, pista, botkoklarda o'suvchi kamishlar, ko'galar, suv o'tlari, moxlar.

3. Begona o'tlar. Bularni transpiratsiya koyfitsenti madaniy o'simliklarga nisbatan yukori bo'ladi. Masalan: go'zada 500-600 g, bugdoyda 500 g, juxorida 300 gr -ga teng bo'lsa, gumayda 750, sho'rada 800, ok shuvokda esa 950 gr- ga tengdir. go'zani o'rtacha o't bosganda xar ga dan 1000 - 1800 m³ suv ortikcha sarf bo'ladi.

Begona o'tlar kelib chikishiga ko'ra antropoxor-boshka joylardan kelgan va apofit - maxalliy begona o'tlarga bo'linadi. Apofitlar. 1. Ekinzor va ko'chatzorlarda o'sadigan segetal apofitlar.

2. Tashlandik joylarda o'sadigan ruderal apofitlar.

3. Insonalr tomonidan yaratilgan suv xavzalarida o'sadigan gidroapofitlar.

4. Suv omborlari va sugorish vositalarining chekkalarida o'sadigan gigroapofitlarga bo'linadi. Begona o'tlar bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik begona o'tlarga ajratiladi.

O'simliklarning floristik geografiyasi. O'simliklarning areali. Areal yunoncha, "area" so'zidan olingan bo'lib, maydon, xudud degan ma'noni bildiradi. Ma'lum bir o'simlik turi, avlodi yoki oilasining er yuzida tarkalgan mayodoni areal deb ataladi. Areal turli kattalikda bo'lishi mumkin. Ma'lum tur, avlod tarkalgan arealga nisbatan oila areali kengrok va kattarok bo'ladi. Bir arealda uchraydigan o'simlikarning turlari shu xududda bir tekis bo'lmay, yashash uchun kulayrok joylarida ko'prok., nokulay zonalarida esa kamrok uchraydi. Areallar ikki xil bo'ladi. Tabiiy areal, sun'iy areal. Masalan: oddiy kamish er sharining shimolidan tortib janubidagi eng chekka kengliklargacha bo'lgan barcha kit'alarda o'sadi. Areali er shari kurukligining yarmidan ko'pini egallaydigan o'simlik turlari kosmopolitlar deb ataladi. (jag-jag, koki o't, sho'ra, ko'ngirbosh, keng bargli zubturm).

Tutash areal deb, ma'lum tur individlarning shu arealni tashkil kilgan maydonlari bo'yicha tarkalishiga aytiladi.

Uzilgan areallar, chuchuk bodom (*Amygdalus communis*) O'zbekistonning Parkent tumani va Turkmanistonning garbiy Kopetdogida o'sadi. Ayrim turlarining areali tor bo'lishi mumkin, chunki, tashki muxitning keskin kiskarishi natijasida ular yashaydigan maydon keskin kiskarishi mumkin. O'zining sobik maydonlarida saklanib kolgan bu turlar relekt turlar yoki relektlar deyiladi. Masalan: yongok (*juglans regia*). Juda xam kichik arealni ishgol kiluvchi turlar endimik turlar yoki

endimiklar deyiladi.

O'z arealini kengaytirishga ulgurmagan yoki kengaytira olmaydigan turlar neoendemiklar deyiladi. (togli mamlakatlarda yoki orollarda o'suvchi o'simliklar). Er yuzida joylashib ulgurmagan yosh turlar paleoendemiklar deyiladi.

Lentasimon areal -masalan: turangil teragi Sirdaryo, Amudaryo va boshka daryolar bo'ylarida o'sadi. Areal chegaralariga antropogen omillar xam katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan: O'rta osiyo toglari va cho'llarida o'suvchi archa, pista, bodom, yongok, yovvoyi olmalar, saksovul, shuvok, bularning areali ancha toraygan. Insonlar areallarni kengaytiradi xam, masalan: o'rta tolali go'za Amerikadan, ingichka tolali go'za Misrdan, pomidor - kartoshkalar Janubiy Amerikadan olib kelingan.

Insonlar o'z xayot faoliyatida o'zi uchun kerakli o'simliklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib turadilar. Bu umumiy nom bilan introduksiya deyiladi. Masalan: Xitoydan Kavkazning kora dengiz soxillariga choy, tsitrus, bambuk, tunga daraxt olib kelib ekilishi.

O'zbekiston asosan ikki azim daryo –Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan . U Orol dengizi va ustuyrt tekisligidan tortib , qorliTyanshan va Pomir –Oloy tog'larigacha, Amudaryo yoqalaridan trtib , Qizilqum cho'llarigacha bo'lgan g'oyat katta territoriyanı egallaydi.Uning umumiy maydoni 449,6ming kv km ni tashkil etadi.

O'zbekiston relyefining notekisligi, mikro relyefining turli tumanligi uning tabiiy sharoitiga keskin ta'sir etadi.Shu sababli uni aniq bir iqlim mintaqasiga kiritib bo'lmaydi. Lekin umumiy joylashishi ,sharoitini hisobga olib ,uni o'rtacha mintaqaning cho'llar zonasiga kiritishadi.O'zbekiston o'simliklarga boy o'lka ,VI tomlik „o'zbekiston florasida” 4148 ta tur qayd etilgan.

***O'zbekiston territoriyasining mintaqalarga bo'linishi.
(Qoraqolpog'iston bilan birga)***

<i>Mintaqalar</i>	<i>Ming ga</i>	<i>%</i>
Cho'l	27594,8	61.16%
Adir	2479,7	9,5%
Tog`	961,9	2,13%
Yaylov	701,8	1,55%
Ekin ekiladigan yerlar	11577,7	25,66%
<i>JAMI</i>	45115,9	100%

Cho'l mintaqasi.

Ekstraarid cho'l mintaqasi butun respublikamiz teritoriyasining 61,6% ni tashkil etadi. Cho'l mintaqasi dengiz sathidan 500-600 m gacha bo'lgan balandlikda joylashgan. bunday yerlar asosan O'zbekistonning g'arbiy qismidagi Qizilqum cho'llarining ancha qismini, Amudaryo deltasining barcha maydonini, Ustuyrt tekisliklari va Qarshi va Surxon cho'llarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada asosan O'zbekistonning g'arbiy qismidagi Qizilqum cho'lining ancha qismini, Amudaryo deltasining barcha maydonlarini, Ustuyrt tekisliklarini hamda Kimerikum, Qarshi va Surxon cho'llarini o'z ichiga oladi. Bu mintaqada asosan kserofit, ya'ni quruq va issiq yoz sharoitiga moslashgan o'simliklar o'sadi. Cho'l mintaqasi respublikamizda juda ko'pmaydonni egallaydi. Cho'llarning tuprog'ini uch hil: a) sho'rxor tuproqli cho'l (tuz konlari, sho'rhori yerlar, taqirlar, sho'rdan bo'rtgan yerlar) tipi, b) qumli cho'l (qum, qumloq, oq qumlar, uchib yurivchi qumli yerlar) tipi, v) gipsli cho'l (mayday tosh aralash karbonatli yerlar) tuproq tiplaridan iborat. Cho'l mintaqasining turli hil tuproqdan iboratligi undagi o'simliklarni ham turli tuman bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan sho'rxor tuproqli ylarda sho'r o'simliklar, qum tuproqli yerlarda qumda yaxshi o'suvchi ksereofit o'simliklar, gipsli yerlarda shu sharoitga moslashgan ba'zi o'simliklar o'sadi.

Ekstrarid (o'ta issiq) iqlimli cho'l mintaqasida harorat juda yuqori bo'lib, yozda +40, +45 C° ga yetadi. Yozda kunlarning juda isishi, yog'ingarchilikning butunlay bo'lmasligi, kuchli issiq shamollarning esib turishi, bulutli kunlarning butunlay bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Cho'l mintaqasida yillik namlik 120-200 mm ni tashkil etadi. Yozda 4-5 oygacha bir tomchi ham yog'in tushmaydi. Shu sababli havoning absolute namligi iyulda 30%ga zo'rg'a yetadi. Cho'llardan esadigan issiq havo oqimini hech qanday to'siq qaytara olmaydi va u boshqa nam havo bilan qo'shilmaydi. Cho'l mintaqasi sho'rxoq, qum, gips va oz tuproqli yerlardan iborat. Bu mintaqaning iqlimi, o'simliklari va tuprog'ini tuli tuman bo'lganligi sababli u ikki qismga: pastki cho'l va yuqori cho'lga bo'linadi.

KOVRAK Asosan qumliklar, cho'llar, adirlar va tog'oldi hududlarida o'suvchi sassiq kovrak o'simligining bo'yi 1.0-1.5 metr gacha yetadi, uning yo'g'on ildizi, tuproqning 1.5 metr chuqurligigacha kirib boradi. Shakli silindrsimon, bochkasimon yoki tuxumsimon bo'lishi mumkin. Bu o'simlikning poyasi tik o'suvchi, ichi biroz g'ovak, yuqori qismidan shoxlangan, asosan bir genertiv novda hosil qilib 7-9 yilda bir marotaba gullab, urug'lab keyin nobud bo'ladi. Barglari, yumshoq, tez so'liyidigan, ustki tomoni tuksiz, pastki qismi esa biroz tukli, ildiz bo'g'zidagilari qisqa, yo'g'on bandli, poyadagilari maydaroq bo'lib, uchki qismdagilari faqat barg novini hosil qiladi. Ildiz bo'g'zidagi barglarning



shakli piramidasimon, barg plastinkasi ikkilamchi qirqilgan, barg bo'laklari lansetsimon, chekkalari tekis bo'lib, uzunligi 14-18, eni 5-7 santimetr ga yetad. Poyadagi barglar yuqoriga qarab maydalashib boradi, eng uchdagilari faqat bargqinidan (novdan) iborat. Kovrak vegetatsiyasini fevral oyining oxiridan boshlaydi. Mart, aprel oyida gullab, mayning oxirida urug'laydi. Mevasi may oyining oxiri va iyun oyining birinchi yarmida pishib yetiladi. Urug'lar yetilgach, hasharotlar, qushlar va shamol yordamida tarqaladi. Kovrak tarkibida efir moylari, smola (elim), uglevodlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud. Tibbiyotda ishlatiladigan yelim-smola tarkibi efir moylari, unga qo'lansa hid beruvchi organik sulfidlar, pinen va terpenoidlar, kumarin va boshqa birikmalardan iborat. Kovrak ildizidan qirqish yo'li bilan ajratib olingan yelim-smola kina, asafetida, sapagen, al`banum, sumbul, ammoniakum kabi turli nomlar bilan qadimdan tibbiyotda keng qo'llanilib kelingan.

QORASAKSOVUL-(Halahulon apholu lijn)

Sho`radoshlar oilasidan bo'lib, bo`yi 3 -5 m diometri 60 -80 sm ga yetadigan daraxt. Uning bir yillik novdalari juda ham sersuv, bo`g`imli va yashil rangda bo'lib, barg vazifasini bajaradi. Barglari yoqolib ketgan va mayday tangalar bilan almashgan. Qorasoksovul aprel –may oylarida ko`karadi va gullaydi gullari ko`rimsiz, juda mayday bo`ladi. Uning mevasi oktabr oyida pishadi mevalari qanotchali bo'lib, eni bir sm yetadi. Tashqi tomondan gulag o`xshaydi. U urug`idan yaxshi unadi. U rugini sho`rxok qum tuproqli yerlarga kuzda (noyabrda) yoki erta bahorda (fevralning oxiri mart oyida) ekish mumkun. Qorasoksovul sho`r tuproqda yaxshi o`sadi shuning uchun bazan sho`rxok saksaul deyishadi. Tanasi ko`ndalangiga kesilsa, unda 150 dan ortiq yillik halqalar ko`ramiz. U bir yilda bir necha yillik halqalar hosil qiladi. o`simlik 30-35 yilda to`liq voyaga yetadi . 50-60 yildan keyin quriy boshlaydi. Agar 5-6 yillik eski novdalari kesib olinsa ham ildizidan yana ko`karadi. Chorva uchun to`yimli ozuqa , yog`ochi ogir tez sinuvchan , usti to`q kulrang po`stloq bilan qoplangan , chirigan poyalari eng yaxshi yoqilg`i bo'lib, undan ko`mir tayyorlanadi.

BOYCHECHAK(Kolchikum

keselrigi)piyozguldoshlar oilasi,piyozboshli ko`p yillik o`simlik .poyasi yer ostida joylashgan bo`lib,faqat gullayotganda yer ustiga chiqadi. Gullari 1-3 ta,gul qo`rg`on bo`laklari oqbo`zan to`q binafsha rangli,yo`l yo`l,chiziqli,nashtarsimon,uzunligi,15-



30mm,naychasidan3 barobar kalta. U yilning kelishi va joyning dengiz sathidan balandligiga qarab, turli vaqtlarda-fevraldan maygacha gullaydi.mevasi mart iyun oylarida pishadi.boychechak cho`l mintaqasidan tog` mintaqasigacha uchraydi.

CHERKEZ (salsola richteri karel) sho`rodoshlar oilasidan boyi 1- 2,5 m keladigan buta poyasi tik shoxlangan barglaari ipsimon 4 -8 sm asosi enli uchi o`tkir . o`q

ildizi uzun, tuproqqa ancha chuqur kiradi mart – aprelda ko`karadi iyun – iyyulda gullaydi, mevasi avgust –sentabr oyida pishadi . qanotchali bo`lib urig`i markazda joylashgan . ular shamol yordamida osonlik bilan tarqaladi. Novdasi va barglari tarkibida ishlatiladigan salsolin alkaloidi bor . bargidan jun matolarini bo`yashda ishlatiladi.

QORABARAK (halostachus kaspika) sho`radoshlar oilasidan bo`yi 1–3,5 m ga yetadigan daraxt yoki buta. Poyasi kuchli shoxlangan bargllari burchak shaklid. o`tkir qipig` shaklida asosidan bir- biriga tutashgan shuning uchun poyasida bo`g`imlar hosil bo`lgan. Mart oyida ko`karadi o`q ildizi tuproq ichiga ancha chuqur kiradi. Gullari oq rangli iyun-iyul oylarida gullaydi .Iyul –sentabr oylarigamevasi pishadi, mevasi uch burchak shaklda ,pishmasdan oldin shishgan holda bo`ladi.urug`I tuxumsimon bo1`yi 0,75mm tuksiz.u nam ,sersuv ,sho`rxoq yerlarda ko`p o`sadi.

SARSAZAN-(Haloknemum strobilakeum) sho`radoshlar oilasidan.Bo`yi 10-30 sm chala buta. Poyasi juda shoxlangan ,sersuv, bir tupi 1m kv joyni egallaydi.yillik shohlari silindr,etli bo`g`imli.Mart-aprelda ko`karib,iyul-avgust oylarida gullaydi.Mevasi avgust-oktabr oyida pishadi.o`simlik taqir ,nam,sho`r yerlarda o`sadi.

BOYALICH(salsola arbuscula) sho`radoshlar oilasi,bo`yi 20-100sm chala buta poyasi kuchli shoxlangan .Barglarining uzunligi 5-35mm ko`k yoki kulrang.Mart-aprel oylarida ko`karib ,iyun-iyul oylarida gullaydi. Gullari boshoqsimon ,gulqo`rg`on bargchalari pardasimon,sarg`ish yoki binafsha rangda bo`ladi avgust-sentabrda yetiladi.Mevasi qanotchali bir birinig ustiga yopishgan yupqa pardasimon.

**YUQORI CHO`L** Respublikamizda anchagina maydonni egallaydi. Bunga Buxoro,Jizzax,Samarqand,Sirdaryo,Qashqadaryo,Surxandaryo,Qoraqalpog`istonni ng Ustutr tekisliklari kiradi.Yuqori cho`l adir poyasiga yaqin bo`lganligidan uning ba`zi joylarida gips aralash tuproqlar ham uchraydi.Ayniqsa bunday yerlar Samarqand viloyatining Nurota,Buxoro viloyatining Konimex,Jizzaxning Forish,Qarnabcho`l,Mirzacho`lda uchraydi.Yoz va kuz bo`yi bir tomchi ham yog`in yog`maydi. Qorlar uzoq saqlanmaydi. Ksereofit o`simliklar ko`p o`sadi. O`simliklarning asosini shuvoq o`simligi tashkil etadi. Adirda yaqin joylashganligi tufayli yuproqda namlik bir oz ko`proq havo namligi ham ko`proq ; yillik temperature 14 – 18 gr ni tashkil etadi. Yooz va kuz bo`yi bir tomchi ham yomg`ir yog`madi. Yoggan yomg`ir uzoq saqlanmaydi.yuqori cho`lning o`simliklar dunyosi turli tuman. Bu yerda kserofit osimliklari ko`p o`sadi o`simliklar qismining asosiy qismini shuvoq tashkil etadi.yuqori cho`l adir poyasiga yaqin bo`lganidan uning bazi joylaridagios aralash tuproq ham uchraydi.

OQSOKSOVUL(HALOXYLON PERSIKUM) sho`radoshlar oilasidan bo`yi 5 m daraxt.barglari mayday kattaligi 1.5 mm bo`lgan tangachali.u ekilgan yerlarning havosi nam bo`lib turli hil bir yilliko`simliklarning ancha normal o`sishiga yordam beradi ko`chma qumlarni tutib qolishi tufaylitemir yo`l yoqlariga cho`ldagi ovul quduqlar atrofiga ekiladi. Undan eng sifatli yoqilg`I ham tayyorlanadi.. undan tayyorlangan komir oyoq og`riq kasalligiga yaxshi davo beradi.uning guulidan

achchiqtuzlar oliinadi.u Qizilqum Buxoro oblastlarida qumloq joylarda ustyurtning janubi tomonidagi adirda ko`p o`sadi.

YANTOQ(Alhagi sparsifolia shap)dukkakdoshlar oilasi ,bo`yi60-80sm,ko`p yillik o`simlik.ildizi 15-20m chuqurlikkacha boradi. Uning uchinchi tartibli shoxchalari tikanga aylangan.Barglari tuksiz,2-4smuzunlikda,eni1,5-2,5 sm,elipsimon yok teskari tuxumsimon,ohiri uchli b,b tugaydi. Gullari pushti tuksiz.Uzunligi 1sm,3-58 tadan shoxchalarga o`rnashadi. MevasiAvgust-oktabr oylarida pishadi.urug`I po`st bilan qoplangan, bo`g`im bo`lib joylashgan.urug`idan sekin ko`payadi Chorva uchun to`yimli ozuqa,undan shakar ham olishadi.Yoz davomida100-150 kg shakar to`plashi mumkin.



YALTIRBOSH (BROMUS TEKTORUM) boshqadoshlar oilasidan bo`yi 20-30sm bir yillik oo`simlik . poyasi kam shoxlangan mayday tukchalar bilan qoplangan.u fevral oyida chiqadiaprel oyida gullaydi. Gullari oq rangli, changchisi bosshoq qipigidan chiqib turadi., sarg`ish rangda. May oyida urug`I pishadi u qipig` bilan o`raglan.mevasi boshqoq xolidapoyaning uchki qismida joylashgan. Bandi uzun boshqoqning uchida qipig`u bor.urig`idan yaxshi unadi.

CHO`L MINTAQASIDA ENG KO`P O`SADIGAN O`SIMLIK

<i>Nº</i>	<i>MAXALLIY NOMI</i>	<i>OILASI</i>	<i>GULLASH DAVRI</i>
	<i>Buta va chala butalar</i>		
1	JINGIL	Yulg`indoshlar	Iyul -oktabr
2	KERMAKJUSAN	Murakkabguldoshlar	sentabr
3	KO`KPEK	Sho`radoshlar	Iyul
4	NORJUZGAN	Torondoshlar	aprel
5	OQBO`YALISH	Sho`radoshlar	Iyun
6	OQJUZG`ON	Torondoshlar	aprel
7	OQSHO`RA	Sho`radoshlar	Iyun
8	OQYLMONQULOQ	dukkakdoshlar	Iyun
9	PATLOQ	dukkakdoshlar	aprel
10	TUKLI QUYONSUYAK		may
11	CHO`LASTRAGAL		may
12	CHO`TQARAGAN		may
13	SHOXILAK	Sho`radoshlar	Iyul
14	ERMON	Murakkabguldoshlar	sentabr
15	ECHKINCHAK	dukkakdoshlar	aprel
16	QORQBARQIT	Sho`radoshlar	Iyun
17	QORAJUVSAN	Murakkabguldoshlar	sentabr

18	QORASHUVOQ		sentabr
	BIR YILLIK O`SIMLIK		
1	Achchiqo`t	sutlamadoshlar	aprel
2	Babuna	Murakkabguldoshlar	aprel
3	Bo`zcho`l	Boshogdoshlar	may
4	Gultikan	Murakkabguldoshlar	aprel
5	Movigul	Govzabonguldoshlar	aprel
6	Momaqaldirmoq	sutlamadoshlar	aprel
7	Mushuktirnoq	Dukkakdoshlar	aprel
8	Mushukqoyruk	Kermakdoshlar	aprel
9	Nayzaqora	Sho`radoshlar	may
10	Olabuta		mart
11	Otashak	Ayiqtovondoshlar	mart
12	Oqchitir	Kermakdoshlar	may
13	Oshiq o`t	sutlamadoshlar	aprel
14	jag`-jag`	Kermakdoshlar	aprel
15	poshmak	Sho`radoshlar	Iyul
16	sariqsira	Soyaabonguldoshlar	aprel
17	Sog`an	Sho`radoshlar	Iyun
18	Sertukbaliqko`z		Iyul
19	Keta		Iyul
20	Tasmacho`p	Ayiqtovondoshlar	may
21	Tuksizbaliqko`z	Sho`radoshlar	Iyul
22	To`rg`ayo`t		Iyun
23	To`rg`aycho`p		Iyul
24	Tuya qorin		Iyul
25	Tuyachangal		Iyun
26	Uchma	Ayiqtovondoshlar	mart
27	Hipikoum	Ko`knordoshlar	mart
28	Xamizise	sutlamadoshlar	may
29	Xaredandon	Sho`radoshlar	Iyun
30	Xolstarium	Chinniguldoshlar	Iyun
31	Chitiro`t	Krestguldoshlar	aprel
32	Shokila	hiloldoshlar	Iyul
33	Yog`liq qora	Krestguldoshlar	mart
34	Qoraqiz	Murakkabguldoshlar	Iyul
35	Qorabark o`t	Sho`radoshlar	aprel
36	Qizilcho`p	Krestguldoshlar	aprel
37	Qizil sho`ra	Sho`radoshlar	Iyul
38	Qumtariq		may
39	Qumboq		Iyul
40	Qumsiparak	Chinniguldoshlar	aprel
41	Quyongjun	Sho`radoshlar	Iyun

42	Qushoyoq	Murakkabguldoshlar	aprel
43	G`oz o`ti	Boshoqdoshlar	Iyun
	KO`P YILLIK O`SIMLIKLAR		
1	Arxarbuyurg`un	Sho`radoshlar	Iyun
2	Betaga bo`z	Boshoqdoshlar	aprel
3	Bo`ritikan	Chinniguldoshlar	may
4	Buldiriqo`t	Alesmadoshlar	may
5	Bo`ymadarono`t	Murakkabguldoshlar	may
6	Bug`doyiqqamish	Boshoqdoshlar	Iyun
7	Buyurg`un	Sho`radoshlar	aprel
8	Jayrono`t	Frankeniyadoshlar	may
9	Javqosin	Piiyozguldoshlar	aprel
10	Iloncho`p	Soyabonguldoshlar	aprel
11	Kermak	Kermakdoshlar	may
12	Mavzoley	Murakkabguldoshlar	aprel
13	Mingtomir	Piiyozguldoshlar	may
14	Nayzabarg	Alesmadoshlar	Iyun
15	Norselin	Boshoqdoshlar	Iyun
16	Olmoso`t	Ayiqtovondoshlar	aprel
17	Otashak	Piiyozguldoshlar	aprel
18	Oqbosh	Murakkabguldoshlar	Iyun
19	Oqmiya	Dukkakdoshlar	aprel
20	Oqtiikan	Pechakguldoshlar	Iyul
21	Oqpechak	Chinniguldoshlar	may
22	Oqqurt	Pechakguldoshlar	may
23	Savrinjon	Piiyozguldoshlar	mart
24	Sassiq qo`ray	Soyabonguldoshlar	may
25	Suvbug`doyiq	Boshoqdoshlar	aprel
26	Suvpiyoz	Piiyozguldoshlar	may
27	Sirttan	Qovoadoshlar	may
28	So`libosh	Boshoqdoshlar	Iyul
29	Tatir	Sho`radoshlar	Iyul
30	Toshbuyurg`un		Iyun
31	Tuyatovon	Tuyatovondoshla	may
32	Chalov	Boshoqdoshlar	aprel
33	Choycho`p	Gavzabonguldoshlar	may
34	Cho`lkuchala	torondoshlar	aprel
35	Cho`lchukri	Torondoshlar	aprel
36	Shakaryantoq	Dukkakdoshlar	aprel
37	Shoxbark	shoxbarkdoshlar	Iyun
38	Sho`rqjriq	Boshoqdoshlar	Iyul
39	Sho`rbo`ta	Sho`radoshlar	Iyul

40	Qoraqo`g`a	Hiloldoshlar	Iyul
41	Qizilqiyoq	Boshoqdoshlar	aprel
42	Qo`zigul	Piiyozguldoshlar	mart
43	Qumpiyoz		may
44	Qumerkak	Boshoqdoshlar	may
45	qulanquyruq	Dukkakdoshlar	may

ADIR MINTAQASI.

O`zbekiston teritoriyasining dengiz sathidan 500m dan 1200(1400)m gacha bo`lgan joylar adir mintaqasiga kiradi. Respublikamizning barcha tog` etaklari ,chunonchi: Toshkent, Farg`ona, Andijon, Namangan, Samarqand viloyatining ko`p qismini adir mintaqasi tashkil etadi. Relyefining notekisligi, bo`z tuproqdan iboratligi, o`aimliklarning asosiy qismini rang va qo`ng`irbosh o`simliklari tashkil etishi bilan ajralib turadi. O`zbekiston adirlari turli hil o`simliklarga boy. Ko`pgina tekis adirlarda g`alla(arpa, bug`doy, suli) ekiladi.

RANG(karex pachustulis) hiloldoshlar oilasidan bo`lib, bo`yi 6-20sm ga yetadigan ko`p yillik efemer o`simlik. U chin hosil qilib o`sadi qalinligi 8-9sm ga boradi. Asosan ildizi yordamida vegetativ yo`l bilan ko`payadi. U ko`pincha kuzda ,yomg`ir yog`sa (noyabr oyining oxiri-dekabr oyining boshlarida) ko`karadi. Qishda barglarini sovuq uradi . erta bahorda fevral oyining oxiri, mart oylarining boshlarida qayta ko`karadi. Aprel oyida gullaydi. Gullari sariq rangda . May oyida mevasi pishadi. Urug`idan o`sishi juda qiyin. Qishda o`simliklar qurib qolganda u yam yashil bo`lib o`sadi va chorva mollari uchun to`yimli ozuqa bo`ladi.

**QOQIO`T**(Taraxakuoffikinal) murakkab guldoshlar oilasidan ,bo`yi 5-15sm keladigan ko`p yillik o`simlik . uzunligi 10-25sm, eni 3-6sm keladigan patsimon bo`lingan, uchki tomoni ancha katta, uchburchak shaklida. U mart oyida ko`karadi. Aprel-may oylarida gullaydi. Gullari savatchada joylashgan sariq rangda. Urug`i iyun-iyul oylarida pishadi.



ISFARAK (Delphinium simibarbatum Bienert) ayiqtovondoshlar oilasiga mansub bo`yi 35-75 cm ga etadigan ko`p yillik. O`simlik barglari uzun bandga o`rnagan. Barg yaprog`ibarg bandidan chiqadi va 5 bo`lakka bo`linadi. Ularning har biri yana o`z navbatida ensiz, ipsimon uzun bo`lakchalarga bo`linadi. Ildizi o`q ildiz. Mart oyida ko`karadi apreldan iyun oyigacha gullaydi. Gullari sariq rangda uzunligi 35-40 sm keladigan to`pgulga sich joylashgan. ayrim gulning uzunligi 2 sm 1 sm tikani ham bor. guli 1,5 sm uzunlikdagi gul bandiga o`rnashgan gulbandining bir tomoni tukli bo`lib sariq bo`rtmasi bor. urugi iyul oyida pishadi. Uning tanasida 0,25-0,75 % alkaloid bor.

MOMIQ(*Lachnophyium gossypinum* Bge)murakkab guldoshlar oilasidan bo`yi 10-60sm bir yillik o`simlik, barglari ildiz bo`g`zida va yon shoxchalari ostida joylashgan. Poyasi tik yumshoq avgust oyida gullaydi gullari oq ko`kish 1 sm uzunlikda. Gulkosasi sarg`ish, urig`I iyul – avgustda pishadi u savadchada joylashgan 1 savatchada 80 dan ortiq urug` bo`ladi., urug`idan yaxshi unadi. Qurg`oqchilikka juda chidamli. Yer ostki qismi tarkibida 0,1-0,4 efir moyi bo`ladi. Momiq shirasi bilan turli yara va chipqonlar davolanadi.

SHIRACH (*Eremurus algae*) piyozguldoshlar oilasidan. Bo`yi 30-80 sm ga yetadigan ko`p yillik o`simlik. Barglari juda etli poyasida barglari bo`lmaydi. Mart – aprel oylarida ko`karadi. May – iyun oylarida gullaydi , gullari poyaning uchida popuk shaklida o`rnashgan, pushti rangda. Mevasi iyun – iyulda pishadi. Tashqi ko`rinishi dumaloq chanoq shaklida bo`lib , uning ichida urug` yetiladi. Ildizi popuk ildiz.o`zbekistonda 20 ortiq uri bor.

**LOLAQIZG`ALDOQ**(*Papave rpavonium* Schrenk)ko`knordoshlar oilasidan, bo`yi 40sm bir yillik o`simlik. Poyasi oddiy bazan asosidan shoxlanganb,qalin tukchalar bilan qoplangan. Barglarining cheti qayrilgan ildiz bo`g`ziga jolashgani uzun bandli. U fevral oyining oxiri – mart oyining boshida unib chiqadi. Apreloxiri, may boshida gullaydi. G`unchasi tuxumsimon, 8-15 sm usti tukchalar bilan qoplangan. Gulkosasi 2 bo`lib ular tez to`kiladi. Gultoji qizil rangda; uning ostgi qismi qora dog`li.gultoji 5 ta ,chankchisi juda ko`p; changdoni bitta 3 xonali. Gultoji 2-3 kundan keyin to`kiladi.mevasi may iyun oylarida pishadi.urug`I kosacha ichida 1mm uzunlikda bo`ladi. Urug`idan unadi



GULHAYRI (*althaea rhtikarpa*)gulhayridoshlar oilasidan ,bo1yi 60-180 sm ko`p yillik o`simlik . poyasi tik,ko`p shohlanmagan yuldussimon,tukchalar bilan qoplangan. Bargi 3-5 bo`lakli ,martda ko`karadi may-iyunda gullaydi guli och binafsha rangda asosan sariqroq. Mevasi iyul-avgustda pishadi.mevasi ichida 20-22 ta urug`i bor.manzarali va dorivor o`simlik.

**NO`XATAK**( *astragalus filikaulist*) dukkakdoshlar oilasidan bo`ti 40sm bir yillik o`simlik. Poyasi tik turuvchi shohlangan qalin tukli. Barglari bandli 4-8 sm . fevral –martda unib chiqadi dastlab 2 ta barg hosil qilib ko`karadi. Aprel –may oylarida gullydi. Gullari to`p guldand poya uchida 6-20 tagacha gul hosil qiladi. Gultoji oq binafsha rangda. Mevasi may-iyun oylarida pishadi dukkakli ,uning ichida bir necha urug`i bor. Urug`idan ko`payuvchi efemer o`simlik.

QATRON(*krambe kotschyana bois*)krestguldoshlar oilasidan 30-80smli ko`p yillik o`simlik .barglari juda katta,uzun bandli,tuxumsimon –yumoloq uzunligi60 sm ,eni 80 smga yetadi . barglari ildiz bo`g`zida hosil bo`ladi. Va 2-3 yildan keyin poya chiqaradi. Mart oyida ko`karadi va dastlab oq sarg`ish barglar paydo bo`ladi so`ng ko`k tusga kiradi ,aprel –mayda gullaydi oq sariq tusda. Mevasi iyunda pishadi urug`I yupqa qobiqli, uchi o`tkir, ko`sakcha ichida joylashgan . uni kuzda ekish tavsiya etiladi. Qatron bo`z va shag`al aralash gumusga boy tuproqda yahshi unib asalchil o`simliklardan iste`molda ishlatiladi. Tarkibida 15% qand, 5% oqsil, 3% kraxmal, 20% klechatka urug`ida 18-25% yog` va boshqa foydali moddalar ko`p bo`ladi . quritilgan ildizidan un tayyorlab non yopish mumkin.

**BEKLARO`TI**( ECHINOPHORA SIPTHORPIANA GUS) soyabonguldoshlar oilasidan bo`yi 30-50 sm ko`p yillik o`simlik poyasi tik tuklar bilan qoplangan ildizi o`q ildiz. Barglari poyasini o`rab turadi 3 marta patsimon bo`lingan. Mart oyida ko`karadi. Iyul oyida gullaydi ,gultoji tukli uzunchoq sarg`ish rangda mevasi avgustda pishadi.bo`z tuproqda yaxshi o`sadi.

ROVOCH(RHEUM MAHIVITSIY) torondoshlar oilasidan bo`yi 2 m ko`p yillik o`simlik barglai 40 sm yog`on bandli. Yirik barglari ildiz oldida doira shaklida joylashgan mart oyida ko`karadi. Dastlab barglari oqish bo`lib keyin yashil tusga kiradi. Faqat to`p gul o`rnashgan qismidan novdalar chiqadi. May-iyun oylarida gullarida gullaydi , gullari mayday. Mevasi iyun –iyul oyida pishib 3 qirrali yong`oqcha bo`lib uzunligi 2 sm. Urug`idan ko`payadi . etli bandi istemolga ishlatiladi. Ildizi oshlovchi tanid moddasiga boy . bo`yoqchilikda va dori tayyorlashda keng ishlatiladi.

BODOM(AMIGDALUS SPILOSIMA)ra`noguldoshlar oilasidan 2-3 mli buta yoki kichik daraxt uning tanasi ser shoh tikanli shoxlarning uzunligi 2-4sm eni esa uzunligidan 2-3 marta qisqa . barglari lansetsimon hushbo`y gullari barg bilan birga yoki oldinroq chiqadi . mart oyining o`rtalarida ko`karib gullaydi. Gullashi aprelgacha davom etadi gultoji oq pushti rangli . iyun –iyul oylarida mevasi pishadi. Shakli tuxumsimon ,usti qalin tuklar bilan qoplangan. Bodom danagining mag`zida moy ko`p. bodomning mag`zida oz miqdorda zaharli modda-amigdalın bo`lib tibbiyotda ishlatiladi.

Tog` mintaqasi

Respublikamizdagi tog`larning eng yuqori qismi dopim muzliklarr bilan qoplangan, pastki qismi doimo jazirama issiq qizilqum va Qoraqum bilan tutashadi. Bizdagi tog`larning eng pastkisi-SultonVays tog`i(dengiz sathidan 473 m)eng ulkani Hisor tog`idagi cho`qqi (dengiz sathidan 4688 m) da joylashgan.O`zbekiston geografik jihatdan ekvatorga yaqinligi,quyosh radiyasiyasining tik tushishi respublikamiz iqlimiga katta tasir qiladi, shu sababli tog`lardagi havo ancha quruq.Ozbekiston teretoryasidagi tog`lar Tyanshan va Pomir-Oloy tog`larining janubi-g`arbiy tarmoqlari bo`lgan Chatqol,Qurama Piskon,Ugam,Turkiston,Zarafshon,Hisor,Boysun,Bobotog`tizmalari va uning tarmoqlari bo`lgan Nurato Oqtog` Molg`uzar tog`lari kiradi. Bu tog`lar tabiiy sharoiti ,o`simliklar dunyosi jihatdan ko`pincha adirlarni eslatadi.Gumiqli iqlimli tog` intaqasining yillik yog`in miqdori 500-600 mm dan 1000-1200 mm.Tog`larda havo namligi yozda 40-50% qishda 90-100%.Tog` mintaqasi ham odatda ikki mintaqaga:Pastki va Yuqori mintaqalarga bo`linadi.

Pastgi mintaq. Bu yuqori adir bilan tutash bo`lib,uzoq vaqt ko`karib turadigan efemerlarning ko`pligi bilan xarakterlanadi. Efemerlar juda kam bo`lib, chala buta,buta daraxtlar tagida o`sadi daraxtlar juda siyrak. Bu joyning iqlimi yuqori adirdan biroz farq qiladi.Tuprog`i gumusta boy bo`lib, o`simlimliklarning o`sishi uchun juda qulaydir.Bu mintaqada katta xarsang toshlar bilan qoplangan pastki tog`larda bir yillik va ko`p yillik kisirofit o`tlardan bug`doyiq, esparset, shuvoq,toshkakra,bozulbong,chalov kabilar ancha ko`p o`sadi. Respublikamizning hamma tog`larida ham bir xildagi o`simliklar o`smaydi. Cho`l mintaqasiga yaqin joylashgan tog`larda (Nurota, oqtog`, Bukantog` kabilarda) bug`doyiqlar deyarli uchramaydi. Bu tog`larning o`simliklari to`liq kserofit bo`lib, mezofit o`simliklarni topish qiyin. Buning sababi bu tog`larda o`simlik turlari juda kam, ko`pincha chala buta va butalar, qisman juda siyrak holda o`suvchi bazi daraxtlarni uchratish mumkin. o`zbekistonning sharqidagi tog`lar bulardan tubdan farq qiladi.Bu yerda qor va muzliklar uzoq vaqt yotadi. Ham ancha ko`p. Shu sababli bu yerda efemerlar va ko`p yillik o`simliklar bilan birga chala buta, buta va daraxtlar ancha ko`p o`sadi

Lola (Tulipa greigli)piyozguldoshlar oilasidan,bo`yi 20-40 sm ga yetadigan ko`p yillik o`simlik. Tuxumsimon piyozi qizg`ish qo`ng`ir rangli qobiqli bilan o`ralgan . Barglari 3-4 ta bo`lib,uning ustki tomonida qo`ng`ir rangli chiziqlar bor. Mart oyida ko`karadi. Aprelda gullaydi. Oddiy gulqo`rg`onli bo`lib,6ta qizil yoki sariqli yirik gultojibarglardan iborat. Tolibarglarning osti sarg`ish qoradog`li, ularning uzunligi 3-10 sm. Changchisi 6 ta birlashmagan,sariqli yoki qoramti. urug`chisi sariqli ba`zan binafsha rangli. Uch xonali ko`sakdan iborat mevasi may oyida pishadi. Uning ichida qoramti-qo`ng`ir urug`lar hosil bo`ladi. urug`idan yahshi unadi.



BETAGA(*festuca orientalis*) Boshqodoshlar oilasidan, bo`yi 30-100 sm ga yetadigan ko`p yillik o`simlik. Poyasi va barglari tuksiz silliq. Tilchasi juda kalta.

Barglari yassi bo`zan bir oz buralgan. ro`vagi 3-8 ta boshqochali. Mart-aprel oylarida ko`karadi. Popuk ildizli, mayda gullaydi. Gullari ro`vaksimon to`p gul hosil qiladi. Changchisi 3 ta urug`chisi patsimon, mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. Boshqoq qipidlari o`tkir, qiltiqli, tuxumsimon. Pastki gul qipig`i uzunchoq nashtarsimon.. tog`ning pastki qismida, nam joylarda (ariq, soy, daryo yoqalarida) ko`p o`sadi. Chorva mollari uchun to`yimli ozuqa.

**G`OZPANJA** (*potentilla songorika*) ra`noguldoshlar oilasidan, bo`yi 10-40 sm ko`p yillik o`simlik. Poyasi yotib o`sadi. Borg qo`ltig`idan chiqqan gulbandlari yuqoriga ko`tarilgan holda joylashadi. U mart oyining ohirida ko`karadi. Ildizi o`q ildiz, yo`g`on ko`p tugunli, usti eski barrg qoldig`lari bilan qoplangan, qo`ng`ir rangda. Aprel-may oylarida gullaydi. Gulkosasi ko`m-ko`k yoki qizg`ish. Gultoji sariq, teskarri tuxumsimon, gulkosasidan 1,5 marta uzun. Changchisi 20 ta, urug`chisi uzunchoq oval shaklida. Mevasi tuxumsimon, urug`idan yaxshi unadi.

TOG`QO`ZIQULOQ (*phlomis olgae*) labrguldoshlar oilasidan, bo`yi 30-50 sm keladigan ko`p yillik o`simlik. Butun tanasi oq rangli yukchalar bilan qoplangan. Barglari tuxumsimon uzunchoq, o`tkir, asosi yumaloqroq, tutash qirrali. Barglarining usti ko`kimtir, osti moq tukli. Poyasining pastki barglari bandli, yuqoridagilari qisqa bandli. U aprel oyida ko`karadi. Iyun-iyul oylarida gullaydi. o`q ildizli, mevasi iyul-avgust oylarida pishadi. U ko`sakchadan iborat bo`lib u ko`sakchadan iborat bo`lib, uning ichida bir necha qoramtir qo`ng`ir rangli urug` hosil bo`ladi. Urug`idan yaxshi unadi.

**TOG`OLCHA** (*prunus mirabilis*) ra`noguldoshlar oilasidan, bo`yi 4-10 m ga yetadigan, sershoh daraxt yoki buta. U tikanli, yosh novdalari qo`ng`ir qizg`ish, yuksiz. Barglari oval shaklida, uchlari o`tkir, uzunligi 4-6 sm, eni 2-3 sm bo`ladi. U mart oyida ko`karadi va shu oyning oyining o`zida gullydi, gulari oq rangda. Mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. U har hil shaklda, sariq och qizil, to`q qizil rangda. Mevasida yopishqoq shirali neatin deb ataluvchi modda bo`lganligi uchun konditer sanoatida marmelad tayyorlashda ishlatiladi.

ZIRK (*berberis integerrima*) Zirkdoshlar oilasidan, bo`yi 4 m ga yetadi, ko`p shohlangan buta. Tikanlari uch bo`lakli. Barglari teskari tuxumsimon, cho`zinchoq, o`tmas, chetlari bir oz tishchali, yuqori tomoni ko`k rangda. Zirk mart oyida ko`karadi, may oyida gullaydi. Gullari shingil shohlangan, ro`vaksimon sariq rangda. Mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. Mevasi nordon, issiqni tushuruvchi va chanqoqni tushuruvchi dori siatida foydalaniladi. Uning po`stlog`idan sariq bo`yoq olinadi. Zirkning zararli tomoni ham bo` uning bargida zang zamburug`i dastlabki davrni o`tib, keyin donli ekinlarga tushadi va zararlaydi.

**TO`GPIYOZ** (*allium pskemense*) piyozguldoshlar oilasidan, bo`yi 40-100 sm ga yetadigan ko`p yillik o`simlik. Piyoz sharsimon, yo`g`onligi 3-6 sm, qoramtir po`stloq bilan qoplangan. Barglari 4-6 ta qayishsimon, chetlari silliq, ost tomoni siyrak tukchali. Tog`piyoz mart oyining boshlarida ko`karadi. U dastlab ikkita barg xosil qiladi. Bu piyoz xar yili faqat barglar hosil qiladi. May-iyun oylarida gullaydi/ Gullari poyaning uchki qismida soyabon shaklidagi to`pgullari mayda, gulqurg`oni

oltita oqish gultojibargdan iborat. Poyasining ichki qismi g'ovak bo'ladi. Mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. Ko'sakchasi sharsimon . Qora rangli urig'idan yaxshi ko'karadi. Tog'piyoz pastki tog'da ko'p uchraydi/(ayniqsa shamollash)ni davolashda keng qo'llaniladi. o'zbekistonda piyozlarturkimining 100 dan ortiq turi bor. Ularning ko'pi yovvoyi xolda o'sadi va mahalliy xalq tomonidan keng qo'llaniladi.

G'OZPANJA(*Potentilla songorika* Bge) ranofoshlar oilasidan bo'lib ko'p yillik o'simlik. Poyasi yotib o'sadi. Barg qo'ltig'idan chiqqan gulbarglari esa yuqoriga ko'tarilgan xolda joylashadi. Poyasining uski tomoni tuksiz, oski tomoni tukchali . U ingichka o'tmas yukchalar bilan qoplangan. Gospanja mart oyining oxirida ko'karadi. Ildizi yo'g'on , o'q ildiz, ko'p tugunli. Aprel-may oylarida gullaydi. Gulkosasi ko'm ko'k , qizg'ish. Gultoji sariq teskari tuxumsimon Changchisi 20ta . urig'i iyun oyida pishadi. Mevasi tuxumsimon, tuksiz silliqurig'i yaxshi unadi.

TOG'OTQULOQ(*Rumex confertus* Willd) torondoshlar oilasidan, ko'p yillik o'simlik . Poyasi tik chiziqli, uzun bargli, bo'yi 20-30 sm. poyadagi barglari ancha mayda, tuxumsimon yoki nashtarsimon . Tog'otquloq aprel-mart oyida ko'karadi. Dastlab ildiz oldidan uzun va kambarg novdalar xosil bo'ladi. Gullari ko'rimsiz bo'lib, sarg'ish yasil rangli 6 dona gultoji barglardan iborat Mevasi iyun oyida pishadi. U uch qirrali yong'oqchaga o'xshaydi. Ildizi yo'g'on tarmoqlangan, yerga ancha chuqur kiradi. Tog'otquloqning ildizidan oshlovchi modda a bo'yoq olish mumkin. Uning barglari esa to poya berguncha ovqatga ishlatiladi. Tog'otquloqning respublikamizning zax joylarida, tog'lar tog'lar atrofida ko'p o'sadi.

ASTRAGAL(*Astragalus exemius* Bge) dukkakdoshlar oilasidan, bo'yi 50-80 sm ga etadigan ko'p yillik o'simlik Poyasi tik turuvchi baxmaldek qalin oq tukchalar bilan qoplangan. Barglari 20-25 sm uzunlikda, barg bandlari juda qisqa . Astragal aprel oyida ko'karadi. Ildizi o'q ildiz bo'lib tuproqqa ancha chuqur kiradi May iyun oylarida gullaydi. To'pguli sharsimon shakilda bo'lib diametri 4-6 sm ga etadi Gulkosasi qo'ng'ir simon . Gultoji sariq, tukchali. Mevasi tukkagi iyun iyul oylarida pishadi. Urig'i oval hakilda ko'k kul rangda. Astragal qo'ng'ir va kul rang tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi.

YUQORI MITAQA. Bunda dengiz saathidan 2000m dan 2700 m gacha balandlikka bo'lgan joylar. Yuqori mintaqaning asosiy qismini tog'lar va daraxtlar egallaydi. Bu o'simliklarning ko'pi mezoofitdir. Bu yerlar katta toshlar bilan qoplangan, tik qiyqliklar katta katta soy va jarliklardan iborat. Yuqori tog' mintaqasi tuprog'i qo'ngir o'rmon tog' tuprog'idan iborat. yomg'ir suvlari yuqoridan pastga tez oqib tushishi tufayli korbanatli qatlami yuvilib tushadi. Juda sernam joylarning tuprog'i gumus ko'pligidan qoramtir qo'ng'ir o'rmon tog' tuprog'ini xosil qiladi; uning tarkibida 12% gacha chirindi bo'ladi. Xarorat pastlashib havoning absolyut namligi, yomgir miqdori oshib bulutli kunlar ko'payadi. yog'in miqdoining o'rtacha yillik miqdori 800 mm dan 1000- 1200 gacha bo'ladi.

**YONG`OQ**( *Juglans fallax* Dode) yongoqdoshlar oilasidan bo`yi 10 – 15 m ga yetadigan sershox daraxt. u madaniy va yovvoyi holda o`sadi, yovvoyi yong`oqning farqi unuing bargi tumtoq bo`ladi, mevasi dumaloq madaniy yong`oqniki tuxumsimon po`chog`i qalin mag`zi kichkina bo`ladi. yong`oq may oyida gullaydi sentabr oyida pishadi. Uning mevaassida 77,7 gacha moy bor. Bargida yuglandin alkaloidi bo`lib undan tibbiyoda foydalaniladi. po`stlog`idan qo`ng`ir rangli rang olinadi. I.V/ michurin yong`oqqa baxo berib uni kelajakning noni degandi.



DUKYOGON(*Lonicera microphylla* Willd) shilvidooshlar oilasidan bo`yi 1,5 m . yosh novdalari kalta tukli eski tuplari pushi rangda . Barglari teskari , uchi o`tkas bo`yi 1- 3 sm eni 1 –2sm ikki tomoni ham qalin tuklangan. U may – iyun oylarida gullaydi. Guldon poyasi tuksiz. Gultoji sarg`ish, uzunligi 10 -15 mm . Mevasi iyul – avgust oylarida pishadi. U qizil sharsimon uzunligi 5 – 6 mm. Dukyog`ochning 20 turi respublikamizda o`sadi.

ZARANG (*Acer semenovii*) zarangdoshlar oilasidan bo`yi 6 – 10 m., yirik buta yoki daraxt. Tanasi kul rang po`stloq bilan qoplangan. Zarang bark chiqarishi bilan may iyun oylarida gullaydi. Gullari ko`rimsiz mayda bo`ladi. Chankchisining iplari uzun gultojidan chiqib turadi. Mevasi avgust – sentabr oylarida pishadi. U ikki qanotchali (qanotchasi chekkasida pushta xoshiyasi bor) qanotcha bo`laklarining bir birigga tutashgan joyitor burchak hosil qiladi. qanotchasining uzunligi 30 mm etadi. Zarang mayda tosh aralashqo`ng`ir tuproqda ko`p o`sadi/ u juda chiroyli daraxt.

QIZILCHA (*Ephedra distachya*)zag`odoshlar oilasidan bo`yi 1-1,5 m poyasining qobig`i kulrang tanasi sershox, shoxchalari tik tarvaqaylab o`sadi , silliq ingichka, yo`l – yo`l bo`g`im oralig`idan uzunligi 2 sm . Barglari qarqma- qarshi joylashgan tangasimon, pardali uchburchak. U aprel oyida ko`k karadi. Iyun oyida gullaydi, chankchi xosil qiluvchi shoxchasi bittadan sharsimon 2 – 4 gulli bo`ladi. gulyonbaag`ri oval shaklida. Changdoni qisqa bargli 1 yoki 2 -3 tadan bir gulli. Mevasi iyul oyida pishadi uning uzunligi 6 – 7 mm sharsimon etli qizil urug`i 4 -6 mm uzunlikda, nashtarsimon ikki tomoni qabariq. Uning yosh novdalarida alkaloidi bor. Undan kishilar qadimdan oshqazon va bod kasalliklarini davolashda foydalanganlar.

**IRG`AY** (*kotoneaster multiflora*) rra`noguldoshlar oilasidan, bo`yi 0,5-1,5m ga tetadigan tik o`suvchi buta . barglari uzun teskari tuxumsimon. Ancha enli barglarining ikki tomoni ham tuksiz . irg`ay may oyida gullaydi ,ro`vak shaklida to`p gul hosil qiladi. gultoji oq ,mevasi sentabr oyida pishadi. u och qizil rangli, cho`zinchoq tuxumsimon ,uzunligi 6-10 mm 1-2 ta danakdan iborat. manzarali buta. Gullar uchun payvantag sifatida ham ishlatiladi.

**NA`MATAK**(rosa marakandika) ra`noguldoshlar oilasidan,bo`yi 1,5-2 m ga yetadigan buta. tikani ko`p,shohlaridagi barglari to`p bo`lib joylashgan.barglari Mayda 5-9 ta uzunligi 2-6 mm tuxumsimon,ba`zan dumoloq.aprel boshlarida ko`karadi. O`q ildizli.may-iyun oylarida gullaydi. Mevasi iyun-avgustda pishadi U payvantak sifatida ishlatiladi .mevasi tarkibida s vitamini ko`p. bundan tashqari jigar kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dorivor moddalar ham mavjud.



YAYLOV MINTAQASI

Respublikamiz teritoriyasidagi dengiz sathidan 2700-2800 m va undan baland bo`lgan barcha yerlar yaylov mintaqqasiga kirib , alb va subalp o`tloqlardan iborat. Bu mintaqada buta va daraxtlarning o`sishi uchun sharoit yo`q. yaylov hududiga Tyanshanning g`arbiy qismi,Chotqol, Pskom ,Hisorning janubi g`arbiy qismidagi yuqori tog` mintaqalari kiradi. Tuprog`I och va to`q ranglarda bo`lib toshlardan iborat. Iqlimi subneval. Yillik o`rtacha yog`in miqdori 600 ming mm.

PASTKI YAYLOV harakterli tomoni mezoit- o`rtacha nam talab qiluvchi o`simliklarning ko`pligidir. Pastki yaylovda dengiz sathidan 2700-2800m dan 3200m balandlikda bo`lgan yerlar kiradi. Tuprog`itoshli qoyali joylar ko`p . yerning yuza qismi ko`pincha boshoqdoshlar va chim hosil qiluvchi o`simliklarning ko`pligi bilan xarakterlanadi.

**O`RIKARCHA** (juniperus turkistanika ) sarvdoshlar oilasidan , bo`yi 12- 18 m ga yetadigan 2 uylli daraxt, bazilarining bo`yi 2 m oshmaydi shershox, qalin shoxlari yuqoriga qaragan. Bargining uzunligi 2 mm tuxumsimon uchi o`tkir. May oyida gullaydi, mevasi iyul – iyun oyida pishadi. Mevasi sersuv qand moddasiga boy. Uztgi tomoni yaltiroq, qoramtir ko`kish rangli parda bilan o`raglan . u 300 – 500 yilgacha yashaydi . axamiyati suvni tuproqda uzoq vaqt saqlaydi , qorlqrni tez erishiga yo`l qoymaydi natijada tuproq eroziyasi sodir bo`lmaydi. Yosh novdalarida 0,73 -0,87 % efir moyi ham bo`ladi.

CHETAN (Sorbus persika) ranoguuldoshlar oilasidan, boyi 3-5 m yetadigan buta yoki daraxt. Barglari nashtarsimon o`tkir uchli, uzunligu 10 – 16 sm, iyun oyida gullaydi. Qizil rangli gullarnind bir nechasi yig`ilib diometri 15 sm bo`ladigan to`p gul hosil qiladi gulkosasi uchburchak mevasi avgust oyida pishadi.qurilish material siffatida keng foydalaniladi.

SHASHIR (Prangos populariya) soyabonguldoshlar oilasidan bo`yi 1 m yetadigan ko`p yillik o`simlik. Poyasi bir nechta, bir oz dag`al, yo`l – yo`l chiziqli. Ildiz oldi barglari uzun bandli uzunligi 40 sm , ellipssimon 4 – 5 patsimon bo`lakli. U may – iyun oyida gullaydi. Gullari soyabon shaklida topgul xosil qiladi . gultoji bark teskari tuxumsimon , uzunligi 1,4 mm mevasi iyun- iyul oylarida pishadi. Uzunchoq silidrsimon, binafsha rangli bo`lib chetlari qanotchali. Uni ko`kligida o`rib hashak siatida qishga jamg`ariladi.

GERAN (*Geranium regelii*) yoronguldoshlar oilasidan , bo`yi 10 – 30 sm ko`p yillik o`simlik .asosan poyasiz bo`lib yotib o`sadi yoki bir necha tik oqsuvchi kalta poyalar hosil qiladi.barglari mayday bo`lib eni 0.8 – 3 sm 5 – 7 bo`lakli kesiklar rombsimon yoki tuxumsimin shaklda bo`ladi. Ildiz oldi barglari bandli, poyada joylashgan barglari esa bandsiz. U iyun – sentabr oylarida gullaydi. Gulkosasi mayin uchsimon chetlari pardasimon. Gultoji qoramtir pushti rangda uzunligi 14 – 20 mm . mevasi iyul – sntabr oyida pishadi. Geran subalp allp o`tloqlarida lanshaft hosil qilib o`sadi.

BETAGA (*Festura kryloviana*) boshqodoshlar oilasidan bo`yi 15 – 40 cm ko`p yillik o`simlik. Poyasi tik o`suvchi, tuksiz, silliq. Tilchasi kioriksimon. Bqrglari qalqonsimon eni 0,3 – 1 mm, silliq.iyyul oyida gullaydi ro`vagi tig`iz boshqosimin uzunligi 3 – 5 sm, boshogining uzunligi 6-8 mm 4-6 gulli ko`kish qoramtir qo`ngir rangda. Mevasi avgust oyida pishadi.

YUQORI YAYLOV (dengiz sathidan 3000-3200 m da joylashgabu yerda efemerlar umuman yoq deyish mumkin.o`simliklar qoplaminig asosiy qismini kserofit xarakteridagi o`tli o`simliklar tashkil etadi.bu yerda buta va daraxtlar umuman yo`q deyish mumkin. Tuprogi to`q jigar rang qo`ng`r, yumshoq tuproq.subtropik iqlimli bu joy ancha sernam bo`lib, yog`ingarchilik yil bo`yi davom etadi.

NAVRO`ZO`T (*Primulla oigae*) navro`zo`tdoshlar oilasiga mansub bo`yi 50 sm ko`p yillik o`simlik. Ildizi kalta, poyasi tik turuvchi o`simlik bo`lib, poyasi yon shoxlarni hosil qiladi. Barglari jo`zinchoq teskari tuxumsimon bo`libuchi bir oz o`tkir chetlari butun yoki mayday tishchali.iyun oyida gullaydi. Gullari soyabon shaklda,gulkosasi keng qo`ngiroqsimon.gultoji binafsha rangda. Mevasi iyul oyida pishadi. Ko`sagibir oz duumaloq bo`lib uning ichida uzunligi 1 mm keladigan urug`simon shakldagiurug hosil bo`ladi.respublikamizda uni 10 turi tarqalgan.

LAGOTIS(*Lagotis karokovii*)sigir qo`yriqdoshlar oilasidan bo`yi1-2 sm ko`p yillik o`simlik. Bu deyarli poyasiz,tuksiz,ildiz bo`g`zi eski barglarining tolasimon qoldiqlari bilan o`raglan ingichka nashtarsimon o`tkir tishchali.iyun-iyul oylarida gullaydi.Gultoji pushti rang uzunligi 12-14 mm.Mevasi iyul-avgust oyida pishadi.Ko`saging uzunligi 5mm ellips shaklda.U biologiyasi hali to`liq o`rganilmagan.



TO`NG`ISIRT(*Cobresia pamiralaiga*)hiloldoshlar oilasidan bo`yi 15-70 sm ko`p yillik o`simlik poyasi ko`p,yo`g`onligi 1-2 mm tik o`suvchi silindir simon bo`lib juda qalin chim hosil qiladi.Bargining tashqi novi bargsiz,qattiq,qo`ng`ir-kulrang,uzunligi 4-6 sm uzunligi bigizsimon qayrilgan.Iyul oyida gullaydi.To`p gulli qo`ng`ir rangli va boshqosimon shaklda. Mevasi avgust oyida pishadi.Yong`oqchasi teskari tuxumsimon,tumshuqchali.Alp tog`ining o`tloqlarida alohida manzara hosil qilib o`sadi.

TO`QAY O`SIMLIKLARI

To`qay va to`qayzorlar deganda mahalliy halq daryo bo`ylariga yaqin bo`lgan joylarni va u yerlarda o`suvchi o`simliklarni tushniladi. ko`p joylarda daraxt puta, chala buta va o`tlarning birgalikda o`sishidan tashkil topgan. Ba`zan chirmashib o`suvchi (liana) o`simliklar ham uchraydi. To`qayzorlar o`zbekistonning cho`l mintaqasidan to`g` mintaqasigacha bo`lgan daryo bo`ylarida uchraydi. Lekin uning asosiy maydoni daryolarning o`rta va quyi oqimi bilan bog`liq. Adir mintaqasidagi to`qaylar ancha katta-katta maydonlarni tashkil etadi, ba`zan suv kelib daryolar toshganda ular kengayib, qirg`oqlariigacha suv chiqadi. Keyinchalik suvlar kamayib, uning chekkalarida esa to`qayzorlar hosil bo`ladi. Bu mntaqadagi to`qaylarda daraxtlarga nisbatan butava chala butalar(jangak, turang`il, tol, chakanda, yulg`un), ko`p yillik o`simliklardan lo`x, oq nilufar, tarvuz palak kabilar ko`p o`sadi.

MAYMUNJON (*Rubus kaesius*) ra`noguldoshlar oilasidan bo`lib butasimon bo`yi 50-150 sm ko`pincha yotib o`sadi ko`p tikanli ba`zan dag`al tuklar bilan qoplangan bo`ladi. Bargi uch bargchali, barg bandi yukli va tikanli. Guldor novdalari uzun, to`pgullar o`rnashgan. Mevasi bir qancha danakli, ko`k qoramtir rangli. U may – iyun oylarida gullaydi. Mevasi iyun – iyul oylarida pishadi. U ariq va daryo qirg`oqlarida, zax yerlarda, to`qayli hamda toshli qoyaliklarda o`sadi.

Mevasi tarkibida shaker, efir moyi, tanid, oqsil moddasi, flavonlar, kaliy va fosfor tuzlari, olma, chumoli, limon kislotalari va S vitamini ko`p bo`ladi. Oydali jihatlari juda ko`p.

**YULG`UN** (*tamarix litvinoli*) yulg`undoshlar oilasidan, bo`yi 5-6 m ga yetadigan buta yoki kichik daraxt. Barglari deyarli reduksiyalashgan, cho`zinchoq, oval shaklida, uchi o`tkir. u aprel – may oylarida gullaydi. Gullari mayday binafsha rangda bo`lib shoxlarining uchida zich to`pgul hosil qiladi. Mevasi sentabr oyida pishadi. Mevasi 3-4 qirrali, ko`sakcha ichida ko`p urug`i bo`ladi. U asosan Buxoro, Xorazim, Qoraqalpog`iston vohalarida ko`p o`sadi. U ko`mir tayyorlash va yoqilg`i sifatida muhim ahamiyatga ega.

QAMISH (*phragmites communis*) boshqodoshlar oilasidan. ko`p yillik ildizpoyali

O`sish sharoitiga qarab bo`yi 2-4 m ga yetadi. Uning poyasi tik o`sadi, tuksiz silliq, ichi bo`sh. To`p gullari ro`vaksimon. Qamish iyul-oktabr oylarida gullaydi va urug`laydi. U ariq bo`ylarida, daryo qirg`oqlarida, ko`l atroflarida hamda to`qayzorlarda keng tarqalgan. Bu o`simlikdan yuqori sifatli silos tayyorlashda Oydalaniladi. U organik moddalar va minerallarga juda boy.

**LO`X** (*tupha elephantine*) to`zg`oqdoshlar oilasidan, bo`yi 150-200 sm ga yetadigan ko`p yillik o`simlik. Barglari poyasining ostki qismi tevaragida joylashgan, uzunligi 1-1,7 sm. Iyul – avgust oylarida gullaydi. Changchi va urug`chi gullari o`simlik poyasinig uchida ro`vaksimon guldasta g`uj bo`lib to`plangan. Changchi urug`chiga nisbatan yuqoriroqda joylashgan. Gullari juda mayday gulqo`rg`oni bo`lmaydi. balki tukli gulyonbarglari bo`ladi. Uning pishgan mevasi momiuchuvchan tukchalar bilan qoplangan. Bu tukchalar selluloza moddasiga juda boy. Lo`x va uning boshqa turlarida sanoatda, qishloq xo`jaligida (arqon va dag`al matolar to`qishda) keng oydalaniladi.

SPARJA(asparagus persikus baker) piyozguldoshlar oilasidan,bo`yi 60-120 sm ga yetadigan,poyasi o`ralib o`suvchi ko`p yillik o`simlik. Shakli o`zgargan novdalari Yashil rangli to`g`ri silliq,yo`g`onligi 0,5 mm,o`rtadagi va yuqori barglari uzun pixli. Sparja may oyida gullaydi.gulbandlari uzun, gulqo`rg`oni ikki hil:changchisi qo`ng`iroqsimon ,urug`chisi sharsimon. Mevasi iyun oyida pishadi. U qizil sharsimon eni 6-7 mm, u ba`zi joyda juda qalin o`sib,manzara hosil qiladi.

ECHKITOL(salix songaria Aders) tollidoshlar oilasidan bo`yi 8 -10m ga yetadigan daraxt. Shoxchalari ingichka yosh novdalari sarg`ishroq , tuksiz. Barklari tuksiz silliq uzunligi 3 7.5 sm eni 6 -10mm bo`ladi. U aprel oyida gullaydi. Gullari ikki uyli tangaccha shaklida, oqish sariq. Changchisi 3 tapastki tomoni sersuv . Mevasi may oyida pishadi.

JIYDA (Eleagnus orientalis) jiydadooshlar oilasidanbo`yi 3 m ga yetadigan daraxt. Tanasi qizg`ish kul – rang. Barglari tuxumsimin cho`zinchoq yoki lansetsimon, uzunligi 1,5 -5 sm . novdalarining uchi ko`pincha tikanli bo`ladi yosh novdalarinin usti va barglari kkumishsimon yaltiroq, maayda guborlar bilan qoplangan. Jiyda may oyida gullaydi, gullari mayday ko`rimsiz. Mevasi sentabr- oktabr oyida pishadi u mayday uzunligi 1-2 sm ga yetadi. U qizil sariq tusda. Uning tarkibida 60 % yaqin qand moddasi bor, shu sababli ham uning mevasi spirt sanoatida keng qo`llaniladi. Uning mevasidan kisel ishlab chiqarishda ham foydalaniladi. Bu dori sifatita foydalaniladi. Jiydaning yog`ochi qattiq.

TO`QAY O`SIMLIKLARI

<i>Nº</i>	<i>Maxalliy nomi</i>	<i>oilasi</i>	<i>Gullash davri</i>
<i>Daraxt , buta va chala butalar</i>			
1	Vilgelm toli	Toldoshlar	Aprel-may
2	Yulg`un	Yulgundoshlar	May-sentabr
3	Oqshuvoq	Murakkabguldoshlar	Avgust-sentabr
4	Tog`terak	toldoshlar	Aprel
5	Turanga	toldoshlar	Aprel-may
6	Turong`ir	toldoshlar	Aprel-may
7	To`qaysho`ra	Sho`radoshlar	Aprel
8	Tog`yulg`un	Yulgundoshlar	Iyul-sentabr
9	Chakanda	Jiydadooshlar	may
10	Cho`ljing`ir	Yulgundoshlar	Iyul-iyun
<i>Ko`p yillik o`simlik</i>			
1	Bug`doy qamish	Boshogdoshlar	May-avgust
2	Govpechak	Pechakdoshlar	May-avgust
3	Kendir	Krnrddoshlar	May-iyun
4	Kardariya	Krnrddoshlar	Aprel-may
5	Lepedium	Krnrddoshlar	Iyul-iyun
6	Qizilmiya	dukkakdoshlar	Aprel-iiyul
7	Oqbosh	Murakkabguldoshlar	Iyul-iyun
8	Oqnilufar	dukkakdoshlar	Iyul-avgust
9	Otquloq	Toldoshlar	Iyul-iyun

10	Tozgon	To`zg`oqdoshlar	Iyul-avgust
11	To`qay ayiqtovoni	ayiqtovondoshlar	Iyul-iyun
12	Togqamish	Boshogdoshlar	Iyul-avgust
13	O`jovnik	Marsiliyadoshlar	Noyabr
14	Shokokil	Piyozguldoshlar	may
15	Qalam	Boshogdoshlar	May-iyun
16	Qizilkendek	Krndrdoshlar	May-avgust
17	Farov	Boshogdoshlar	Avgust-oktabr
18	Savage`ich		Iyul-avgust
19	yantoq	dukkakdoshlar	May-sentabr
<i>Bir yillik o`simlik</i>			
1	Kichiktoron	Toldoshlar	Aprel-iyul
2	Surepka	Krestguldoshlar	Mart
3	Arabidopsis	Krestguldoshlar	Aprel-may
4	Tellungiella	Krestguldoshlar	Iyul-iyun
5	Togtoron	Toldoshlar	Iyul-iyun

QIZIL KITOB va uning o'rni

"Qizil Kitob -bu hujjat bo'lib u Insonning vijdonidir. Har qaysi millat dunyo oldida o'zining tabiat boyliklarini asrash mas'uliyatini olgan"

(Xalqaro Qizil Kitobdan olingan).

Qizil Kitob - nima? Bu xavf va umid kitobidir. Bu kitobni boshqacha qilib qayg'u-alam kitobi ham deyiladi, chunki bu kitobda yer yuzidagi yo'qolib ketayotgan hayvon zotlari va o'simlik turlarini o'zida mujassamlashtirgan. Qizil Kitob - harakatga chaqiruvchi kitobidir. Dunyoning ko'pgina davlatlari olimlari tomonidan butun dunyoda yo'qolib ketayotgan va juda kam uchraydigan hayvonlar, o'simliklar dunyosini himoya qilish va ularni saqlab qolish uchun Tabiat va tabiat resurslarini himoya qilish birlashmasining Qizil Kitobi (XTHQB) tashkil etildi. Bu kitob chet elda 60-70 yillarda chop etildi. 1-2 - tomida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3-4-tomida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so'z yuritiladi. Qizil Kitob tabiatni sevuvchilar, mutaxassislarni diqqatini o'ziga tortib, hamma mintaqada mashhur bo'ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo'lib, uning har bir varaği har xil rangdadir. Har qaysi rangni o'z ma'nosi bo'lib, masalan, qizil rangda yozilgan hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketayotgani va ularning himoyaga muhtojligini bildiradi. Yer yuzida hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketishining ikki sababi bor bo'lib, birinchi sababi: - bu tabiiy sharoitning o'zgarishi natijasida bo'lsa (tabiiy sabab), ikkinchi sababi esa - (antropogen) inson harakatlari natijasidir. Dunyoda umumiy qushlar va hayvonlarning 1/4 qismi tabiiy sabablar natijasida yo'qolgan bo'lsa, 3/4 qismi esa) inson ta'sirida yo'qolgandir. Oldin bu raqamlarni faqat biologiya mutaxassislari bilishsa, endi esa mln.lab odamlarga ham ayon bo'ldi va insonlar oldida savol tugildi: Inson, sen nima qilyapsan? To'xta - sen o'z uyingni buzyapsan! Hayvon va o'simlik dunyosini asrashda ko'pgina amaliy ishlar qilinib va ularni hisobga olib har qaysi davlat, oblast, tuman va mintaqalarda o'z Qizil Kitoblari tashkil etilyapdi. O'zbekiston Qizil Kitobi ham 1984 yilda tashkil topgan. Unda ko'pgina o'simlik turlari va hayvon zotlari kiritilgan. Masalan, o'simliklardan; lolaning barcha turlari, anzur piyozi, boychechak va h.z. Qizil Kitob haqida yana bir muhim joyi bo'lib, Qizil Kitobning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, doimo uning sahifalarini yangi o'simlik turlari va hayvon zotlari to'ldirilib boradi. Qizil Kitobning sahifalarini qisqartirish uchun inson madaniyati va hulqini doim oshira borish kerak, bu olimlar oldida qo'yilgan muhim muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi» ning zarurligi

Yer kurrasida hozirgi vaqtda 670 ming (shundan 500 mingi gulli o'simliklar) o'simliklar va 1,5 million hayvon turlari mavjud bo'lib, ularning 93% uchun quruqlik va 7% i uchun suv yashash muhiti hisoblanadi. Turlarning hosil bo'lishi va ularning yo'qolib ketishi sababi evolyutsion taraqqiyot jarayoni bo'lib, yerda geologik sharoitlarning o'zgarishiga ham bog'liqdir. Ammo odamning kelib chiqishi natijasida bu tabiiy jarayon buzila boshladi, hayvon va o'simliklarning antropogen (inson faoliyati) ta'sirlari natijasida yo'qolib borish jarayoni tezlasha boshladi. Odam tomonidan yangi yerlarning, orollarning va kontinentlarning o'zlashtirilishi natijasida butun sayyora masshtabida fauna va floraning xilma-xilligi tobora kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda. Turlarning qirilishi qadim zamonlardayoq boshlangan edi. O'n minglab yillar ilgari ovchilar tomonidan mamontlar, qalin junli karkidonlar, gigant bug'ular, g'or arsloni va ayiqlari, o'rta asrlarda Yevropa turi, Steller sigiri qirilib ketdi. Hozirgi biz yashab turgan davrda turlarning yo'qolib ketish jarayoni juda jadallik bilan davom etmoqda. 1600 yildan 1875 yilgacha sut emizuvchilarning 63-turi, qushlarning 74 turi yo'qolib ketdi. Keyingi yillarda har yili 1 dan 10 gacha hayvon va 1 tadan o'simlik turlari yo'qolib ketmoqda. Hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning 600 ga yaqin turi, juda ko'p o'simliklar turlari butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. O'simlik va hayvon turlarining tobora yo'qolib borish xavfi mamlakatlar va butun dunyo miqyosida zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ehtiyojini tug'dirmoqda. 1948 yilda tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tuzildi. Bu tashkilot flora va faunani muhofaza qilishga qaratilgan hamma ishlarni birlashtiradi. Mazkur xalqaro uyushma 1973 yilda «qora ro'yxat»ni chop etdi, unda batamom yo'qolib ketgan hayvonot turlari ro'yxati keltirilgan.

Jahon «Qizil kitobi» 1979 yilgacha chop etildi, shuningdek sobiq SSSR da ham «Qizil kitob» 1979 yilda chop etildi. «Qizil kitob» xavf xatar belgisi. Bu kitobga kam va yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvonlarning turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston o'simlik va hayvon turlari soni 27000 dan ortiq bo'lib, ulardan hayvon turlari 15000 dan ortiq, o'simliklar, zamburug'lar va suvotlari esa 11000 atrofida. O'zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 4500 ga yaqin gulli o'simlik turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va relik turlar mavjud. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12% ini tashkil qiladi. Zarafshon vohasining florasida 2600 tur, Samarqand viloyatining 1700 tur, undan 201 tur dorivor o'simliklardir.

O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 tur «Qizil kitob»ning 1984 yilgi nashriga kiritilgan, yangi «Qizil kitob»da esa (1998) kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi. O'zbekiston faunasida umurtqasiz hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar-108, qushlar-432, sudralib

yuruvchilar-58, amfibiyalar-2 va balig'lar-77) mavjud, umurtqasiz hayvonlar turlari esa 15 mingdan ortiq.

O'zbekistonning birinchi «Qizil kitob»i 1983 yilda nashr qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning 63 turi kiritilgan edi.

Yangi «Qizil kitob» (2003) birinchi bor davlat tilida yozilgan bo'lib, ikkinchi tomida sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 16 turi, balig'larning 17 turi, xalqasimon chuvalchaglarning 3 turi, molluskalarning 14 turi va bo'g'imoyoqlilarning 61 turi kiritildi.

Ta'kidlash lozimki, «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar ro'yxati yildan-yilga aniqrog' bo'lmoqda va biz ularning yangi nashrlariga guvoh bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ida o'simlik va hayvonot turi, oilasi, avlodi, turkumi tartibida alfavit bo'yicha ro'yxatga olingan va har bir o'simlik ko'rgazmali tarzda suratlari keltirilgan. Bu o'z navbatida noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot turlari to'g'risida keng omma tomonidan aniq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

«Qizil kitob» muhofaza choralari kuchaytirish, qo'riqxonalar va buyurtma hududlarini kengaytirish, yovvoyi o'simliklar bilan savdo-sotiqni tartibga solishda litsenziyalar tizimini joriy qilish kabi bir talay muhim tadbirlarni kun tartibiga qo'yadi.

Umuman, bu kitob barcha o'simlik va hayvonot muhofaza qilish borasida qonun asoslariga tayangan muhim hujjat hisoblanadi.

Kitobga kiritilgan o'simlik turlari 4 kategoriyaga bqlingan: «0» maqomi berilgan o'simlik turlari yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan o'simliklardir.

«1» maqomidagi o'simliklar turlari esa yo'qolib borayotgan turlardir. Bunga yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofaza qilishni talab etadigan o'simlik turlari kiritilgan.

«2» maqomidagi turlar esa noyob turlardir. Bu guruhga ma'lum kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va ularning saqlanishini ta'minlash uchun jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar kiradi.

«3» maqomidagi o'simlik turlari kamayib borayotgan o'simliklardir. Bu guruhga kiritilgan o'simlik turlari ma'lum vaqt ichida soni va tarqalish maydonlari tabiiy sabablarga yoki antropogen omillari ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar kiradi.

Mazkur risolaga Samarqand viloyati hududida uchraydigan va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan noyob va yo'qolib borayotgan, inson muhofazasiga muhtoj o'simlik va hayvon turlari to'g'risidagi ma'lumotlar matnlari o'zgartirishlarsiz kiritildi.

O`zbekiston Respublikasi viloyatlari bo`yicha “Qizil kitob”ga kiritilgan o`simliklar soni. Yangi nashr bo`yicha (1998-yilgi nashr).

T\r	Viloyatlar nomi.	O`simliklar soni.
1.	Qoraqalpoqiston A Res	11
2.	Andijon	4
3.	Buxoro	24
4.	Jizzax	21
5.	Navoiy	13
6.	Namangan	12
7.	Samarqand	45
8.	Surxondaryo	112
9.	Sirdaryo	2
10.	Toshkent	80
11.	Farg`ona	28
12.	Qashqadaryo	59
13.	Xorazm	Yo`q

Jami:411 tur o`simlik

O`zbekistondagi dorivor o`simliklar.

<i>O`simlik nomi.</i>	<i>Oilasi.</i>
1.arslonquyruq(arslonquloq)	labguldoshlar
2.arpabodyon	soyqabonguldoshlar
3.bo`tako`z	murakkabguldoshlar
4.bo`ymadaron	murakkabguldoshlar
5.bazulbong	labguldoshlar
6.beshbarg	ra`noguldoshlar
7.baxmalgul	gulxayridoshlar
8.dalachoy	dalachoydoshlar
9.gulizdarak	ayiqtovondoshlar
10.gazanda	gazandadoshlar
11.ixroj	sutlamadoshlar
12.itburun(na`matak)	ra`noguldoshlar
13.isiriq	tuyatovondoshlar
14.kashnich	soyabonguldoshlar
15.limono`t	labguldoshlar
16.marmarak(mavrak)	labguldoshlar
17.omonqora(qoraqobiq)	chuchmomodoshlar
18.oqqaldirmoq	murakkabguldoshlar
19.olabuta	sho`radoshlar
20.oqsinak	dukkakdoshlar
21.petrushka	soyabonguldoshlar
22.qush jiyda	jiydadoshlar

23.qirqbo`g`im	qirqbo`g`imdoslar
24.qizilmiya(shirinmiya)	ra`noguldoshlar
25.qoraandiz	murakkabguldoshlar
26.qoqio`t	murakkabguldoshlar
27.qoshqarbeda	dukkakdoslar
28.qorazirk	zirkdoslar
29.qizilbarg	onachirdoshlar
30.qariqiz	murakkabguldoshlar
31.qo`ytikan	murakkabguldoshlar
32.rovoch	ayiqtovondoshlar
33.sachiratqi	murakkabguldoshlar
34.sanchiqo`t	murakkabguldoshlar
35.sebarga	dukkakdoslar
36.suvqalampir	torondoshlar
37.suvarov piyozi	piyozdoslar
38.sedana	ayiqtovondoshlar
39.sigirquyruq	sigirquyruqdoshlar
40.sariqchoy	dalachoydoslar
41.turkiston do`lanasi	ra`noguldoshlar
42.totim	pistadoslar
43.uzum	tokdoslar
44.zag`oza	zag`ozadoslar
45.zubturum	zubturumdoshlar
46.zira	soyabonguldoshlar
47.o`rik	ra`noguldoshlar
48.yetmak	chinniguldoshlar
49.yersovun	zirkdoslar
50.yovoyi sabzi	soyabonguldoshlar
51.shirchoy	ra`noguldoshlar
52.shirinmiya(qizilmiya)	dukkakdoslar
53.shvid	soyabonguldoshlar
54.choyo`t	choyo`tdoshlar
55.chilonjiyda	jumrutdoslar
56.cho`chqaquloq	piyozdoslar
57.chakanda	jumrutdoslar

O`zbekistonda ba`zi zaxarli o`simliklar ro`yxati.

Zaxarli o`simliklar o`z o`rganlarida zaxarli moddalar (alkaloidlar, glikozidlar va organik kislatalar) saqlaydi. Zaxarli sinil, filiks kislatalari bo`ladi.

<i>O`simlik nomi.</i>	<i>Oilasi.</i>
1.achiqmiya	dukkakdoshlar
2.ayiqtovon	ayiqtovondoshlar
3.bodyoni rumiy	soyabonguldoshlar
4.bo`zshira	sho`radoshlar
5.bangidevona	ituzumdoshlar
6.itkuchala	kuchaladoshlar
7.kuchala	kuchaladoshlar
8.kakra	murakkabguldoshlar
9.ko`kmaraya	gavzabondoshlar
10.kampirchopon	gavzabondoshlar
11.mingdevona	ituzumdoshlar
12.muhalis	sigirquruqdoshlar
13.oqparpi	ayiqtovondoshlar
14.olmaso`t	ayiqtovondoshlar
15.oqmiya	dukkakdoshlar
16.otashak	ayiqtovondoshlar
17.oleandr(xona o`simligi)	kendrdoshlar
18.qo`shbarg	tuyatovondoshlar
19.qizboltir	dukkakdoshlar
20.qoraquloq	kuchaladoshlar
21.qoramig`	chinniguldoshlar
22.sutlama	sutlamadoshlar
23.sovuno`t	navro`zguldoshlar
24.tog`turpid	rutadoshlar
25.tosh buyurg`un	sho`radoshlar
26.tikanli shoxbarg	shoxbarigdoshlar
27.tuyatovon	tuyatovondoshlar
28.tugmabosh	ayiqtovondoshlar
29.temirtikan	tuyatovondoshlar
30.uchma	ayiqtovondoshlar
31.yulduzo`t	chinniguldoshlar
32.g`umay	boshoqdoshlar
33.shoxbarg	shoxbargdoshlar
34.chakamig`	ro`yandoshlar
35.isiriq	tuyatovondoshlar

XULOSA:

KELAJAK O L D I D A G I B U R C H I M I Z

Tabiatni asrash va boyliklaridan tejamkorona foydalanish insoniyat oldidagi eng muhim muammolaridan biri. Qaysikim, tabiat ehson-tuhfalarini ko'r- ko'rona sarflash va uning boyliklarini talon-talonj qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Tabiat haqida qayg'urish- insoniyat o'zi haqida qayg'urishdir, chunki inson tabiatning farzandidir. Tabiat uchun etkazilgan zarar insonning o'ziga qaratilgan zarardir. Texnika va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishi insonning tevarak atrofga bo'lgan ta'sirini kuchaytirdi, bu esa hayvon va o'simlik dunyosining qashshoqlanishiga olib keldi. Bizning bu xatolarimizni kelajak avlod kechirmikan? Yo'q. Bizdan oldingi qadimgi avlodlarimiz flora va fauna dunyosini tarixiy va madaniy yodgorliklarni shafqatsizlarcha qirishgan, qaysikim, cndi ular haqida biz faqatgina rasmlar, qo'lyozmalar, arxeologik topilmalar orqali bilamiz. Lekin bu bilan biz ularni qattiq qoralay ham olmaymiz, chunki ularning ongi- bilimlari yetarli darajada emas edi. Ammo bizning zamonamiz insonlarini kelajak avlod kechirmaydi-sababi, biz ixtisoslashgan, takomillashgan va mukammal insonlardirmiz.

Tabiat o'zining go'zalligi bilan o'ziga insonoyatni jalb etadi. Har bir kishini maftunkor to'glarni qoplab turgan doimiy muzlar, ulardagi xushbo'y gullar, dorivor o'simliklar, hayvon turiari, toza havo, sho'x sharsharalari, muz chuqqilari, qoyalari bilan rom etadi. Bularning hammasidan zavq. olish kerak, har bir narsaning o'z qadriga etish,tabiatdagi mujazgina bir jonli mavjudotni ham asray-avaylash lozim. Lekin insonlar bularning qadriga etish, zavq olish o'rniga ularga ozor etkazishadi, masalan, to'g'da endi ochilgan gullarning eng kattasi, eng chiroylisini uzib olib, guldasta tayorlaydi, lekin o'ylab ko'rishmaydi-ki ozgina vaqt o'tib bu gullar so'lib, qurib qolishini, o'z chiroyini yuqotgan guldastani esa tashlab yuboriladi. Boshqa mamlakatlarda bunday olishda ko'pgina ishlar qilingan. Masalan, Fransiyada to'g etaklarida odamlar, uchun turli mavzularda "murojaatnoma"lar taxtakachlarda qoqib qo'yilgan, jumladan, gullarning dam oluvchi sayyohlarga murojaati: "Bizni uzmag, uzib siz bizni o'ldirasiz va bizni avlod qoldirishdan mahrum etasiz". Gullarni asray bilish, uning qadriga etish har bir kishining madaniyati va tarbiyasidan darak beradi.Yovvovi gullar - bu hammaning boyligidir. Agarda bunday gullar yo'qolib ketsa tabiat qashshoqlanib qoladi va to'g, yaylovlarimiz o'z chiroyi va ko'rkini yo'qotadi. Shuning uchun biz tabiatning barcha jonzotlarni avaylaymiz, ularni asray olishimiz, ona- Vatanimizning har bir burchagini saqlashda o'z kuchimizni sarflashimiz kerak. Tabiat faqat bizgina emas, balki kelajak avlodimiz uchun ham kerak.

Mundareja:

- ***I.***Kirish.....2
- ***II.***Asosiy qism
- 1 Cho`l mintaqasi o`simliklari.....6
- 2 Adir mintaqasi o`simliklari.....12
- 3 Tog` mintaqasi o`simliklari.....15
- 4 Yaylov mintaqasi o`simliklari.....19
- 5 To`qay mintaqasi o`simliklari.....21
- ***III.*** Qizil kitob va uning ahamiyati.....24
- ***IV.*** Xulosa.....30